

SHAKL, METOD VA TURLI VOSITALAR ORQALI BOLALARGA ARTOF-MUHITNI TANISHTIRISH*Turdaliyeva Zarnigor Ulug‘bek qizi**NamDU magistranti*

Annotatsiya: Tezisdagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirishning turli usullari va shakl, metodlarning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Dunyoga kelgan har bir farzand bevosita tabiat qurshovida bo‘ladi. Tabiat shunday odil mo‘jizki, atrof-muhitni muvozanatga keltiradi. Shunday ekan, biz avvalo, bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirishning metod, shakl va vositalari haqida fikr yuritishimiz talab qilinadi. Tabiat bilan tanishtirishda ko‘rgazmali uslub (kuzatish), amaliy uslub va og‘zaki uslublardan foydalaniladi. Bolalarga bilim berishda bilimlar mazmuniga ko‘ra uslub va usullar tanlanadi. Masalan: biror bir qush bilan tanishtirishda yetakchi metod kuzatish hisoblanadi. Tabiat hodisalari bilan tanishtirishda esa yetakchi metod og‘zaki uslub hisoblanadi.

Kuzatish bu atrof-olam predmetlari va hodisalarni maqsadga muvofiq, rejali idrok etishdir. Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo‘lib, unda idrok, tafakkur va nutq kabilar bevosita ishtirok etadi. Kuzatilayotgan hodisani tushuntirishda bolaning tajribasi, bilimi, malakalari muhim ahamiyatga ega.[1.B54] Predmet va hodisalarning xususiyati va sifatleri haqidagi bilimni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan qisqa muddatli kuzatuvlar jarayonida bolalar qismlarning shakli, rangi, kata-kichikligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvini, sathning harakterini farqlashni, havonlar bilan tanishganda esa harakat harakteri ular chiqaradigan tovushlarni ham o‘rganadigan va h.k. O‘simlik va hayvonlarning o‘sishi va rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar haqidagi bilimlarning yoritilishi uchun kuzatishning ancha murakkab turi uzoq muddatli kuzatishlarda foydalaniladi, bugunda bolalarga obyektning kuzatilayotgan holatini aniqlash, ayrim belgilarga ko‘ra yaxlit manzarani tiklash maqsadida ham tashkil etishi mumkin. Kuzatishning ana bir turi solishtirib kuzatishdir. Kuzatishning bu turi o‘rta guruhdan boshlab tashkil etiladi. Solishtirma kuzatishning bir turdagi o‘simlik yoki hayvonlar kuzatiladi, ya‘ni masalan, pishgan meva bilan xom mevani, yorug‘likda o‘sgan o‘simlik bilan soyada qorong‘ilkda o‘sgan o‘simliklarni o‘zaro solishtirib kuzatish. Tarqatmali materiallardan foydalanib kuzatishlar o‘tkazish o‘rta guruhdan boshlab tashkil etiladi. Bu kuzatish bitta obyektning kuzatishdan murakkabdir. Bu o‘rinda tarbiyachidan o‘z diqqatini taqsimlash, barcha bolalar harakatini uyushtira olish talab etiladi, bolalar esa tarbiyachining barcha topshiriqlari, ko‘rsatmalariga aniq rioya qilishdan tengdoshlarini tinglashlari va quloq solishlari, boshqalarni kuzatishlari bilan taqqoslashlari va qiyoslashlari kerak. Kuzatishlarning

tashkil etishning ahamiyati katta hisoblanadi.[2.B67] Barcha bolalar turli tadqiqotchilik harakatlaridan foydalanishda, mashqlarni o'quv ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniga ega bo'ladilar, bolalarni tasavvurlari shakllanadi.

Kuzatishlarni tashkil etishning ahamiyati katta hisoblanadi. Barcha bolalar turli tadqiqotchilik harakatlaridan foydalanishda, mashqlarni o'quv ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Bolalarni aniq, tasavvurlar shakllanadi. Tarqatma material sifatida o'simliklar va ularning qismlaridan foydalanish mumkin. Kuzatishda ishtirok etuvchi har bir bola material to'plamini qo'lga oladi. Kuzatish jarayonida tarbiyachi bolalarga savollar beradi. Olingan tasavvurlar qiyoslanadi. Tarbiyachi bolalarni xulosa chiqarishlariga ko'maklashadi. Kuzatishlarda tarqatma materiallardan foydalanish bolalarning yuqori faoliyatini ta'minlaydi.

Ko'rgazmali metodlar guruhiga bolalar bilan birga rasmlarni ko'rish multfilm va kinolarni namoyish qilish ham kiradi. Bu metodlar foydalanish xilma-xil vazifalarni hal qilishga tasavvurlarni aniqlash va bilimlarini tizimlashtirish, umumlashtirish, *estetik* idrokini tarkib toptirishga yordam beradi.

Rasmlar tabiat hodisalarini batafsilroq ko'rish diqqatini uzoq muddat shu predmetga qaratish imkonini beradi, buni esa ko'pincha tabiatni bevosita kuzatishda tabiatning dinamikligi va o'zgaruvchanligi tufayli amalga oshirilishining imkoni bo'lmaydi. Bundan tashqari ko'p hodisalarni bevosita kuzatish mumkin emas. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta'limiy, voqeaband, predmetli, shuningdek, badiiy rasmlardan foydalaniladi. Ta'limiy, voqeaband predmetli rasmlar bolalarni o'qitishda ko'rgazmali vosita sifatida maxsus yaratilgandir.[3.B53] Rasmlardan foydalanishdan maqsad bolalarda tabiatga nisbatan estetik munosabatni tarkib toptirishdir.

Filmni ko'rishga bolalarni oldindan tayyorlash lozim. Buning uchun film mazmuniga bog'liq bo'lgan suhbat va ekskursiyalar o'tkaziladi, kitoblarni o'qish tashkil etiladi. Bevosita filmlarni ko'rsatishdan oldin bolalar yo'llanma beruvchi suhbat o'tkazilib, unda bolalarga filmni ko'rayotganlarida e'tibor berishlari lozim bo'lgan topshiriqlar beriladi. Film ko'rib bo'lganidan keyin muhim joylarini ajratib ko'rsatishga yo'llangan suhbat o'tkaziladi. Maktabgacha kichik yoshdagilar uchun ovozsiz filmdan foydalanish ma'qul. Ularning mazmunini tarbiyachi aytib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.
2. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996.
3. Nig'matov A.N. Ekologiya Asosiy atama va iboralarning izohli lug'ati. - T.: «Bioekosan» nashriyoti, 2001